



O‘ZBEKISTONNING GEOSIYOSIY JOYLASHUVI IMKONIYATLARI HAMDA CHEKLANGAN JIHATLAR VA MAVJUD MUAMMOLAR YECHIMI

Soliyev Jasurbek G‘ayratjon o‘g‘li

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar fakulteti

2-kurs 3-guruh talabasi

+998932143272

diplomat3009@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasidagi geosiyosiy o‘rni, strategik imkoniyatlari va geografik cheklovlari tahlil qilinadi. Muallif mamlakatning "double-landlocked" maqomi bilan bog‘liq transport-logistika muammolari hamda transchegaraviy suv resurslariga qaramlik masalalarini ilmiy jihatdan yoritib beradi. Maqolada ushbu muammolarning yechimi sifatida O‘zbekiston tomonidan yuritilayotgan "transport diplomatiyasi", "suv diplomatiyasi" va ko‘p vektorli pragmatik tashqi siyosat strategiyalari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, "Anqara – Toshkent" o‘qi va "O‘rta koridor" loyihalarining mintaqaviy barqarorlikdagi ahamiyati ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: geosiyosat, Markaziy Osiyo, Ozbekiston, double-landlocked, suv diplomatiyasi, soft power, o‘rta koridor, pragmatizm, transchegaraviy daryolar.

Kirish: Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimi tahlil qilishda geopolitika fani markaziy o‘rinni egallaydi. XIX asr oxiri va XX asr davomida shakllangan ushbu soha, geografik omillarning davlatlar tashqi siyosati va global xavfsizlikka ta‘sirini o‘rganuvchi fundamental yo‘nalish hisoblanadi. Zamonaviy dunyoda mamlakatning xalqaro maydondagi kuchi va o‘rni shunchaki diplomatik aloqalari bilan emas, balki uning geografik kengligi, *iqtisodiy* resurslari va strategik zaxiralari bilan o‘lchanmoqda. Geopolitika aynan mana shu murakkab bog‘liqliklarni o‘rganuvchi asosiy vositadir.

Markaziy Osiyoning markazida joylashgan O‘zbekiston mintaqada alohida strategik o‘ringa ega. Mamlakat 5 davlat bilan chegaradosh bo‘lib, mintaqaviy va tranzit (yuk va transport vositalarining bir davlat hududidan boshqa bir davlatga borish uchun o‘tib borish jarayoni) tizimida muhim bo‘g‘in vazifasini bajarish imkoniyatiga ega. Shu bilan birga, dengizga chiqish yo‘lini yo‘qligi, mintaqaviy xavfsizlik omillari hamda global kuchlar manfaatlari kesishgan hududda joylashganligi ayrim cheklovlarni ham yuzaga keltiradi.

Mazkur maqolada O‘zbekistonning geosiyosiy joylashuvi tahlil qilinadi, uning strategik imkoniyatlari va mavjud cheklovlari yoritiladi hamda ushbu muammolarni bartaraf etishning samarali yo‘llari ko‘rib chiqiladi.





Asosiy qism: O‘zbekistonning mazkur strategik imkoniyatlari va geografik cheklovlari bugungi kunda nazariy tushunchadan amaliy diplomatiya maydoniga ko‘chgan. Xususan, turk olimi M.S.Erol ta’kidlaganidek, hozirgi geosiyosiy dinamikada mamlakatimiz bir necha ustuvor yo‘nalishlarda o‘z mavqeyini mustahkamlamoqda⁴⁷.

1. Yevroosiyo geosiyosatining markaziy subyekti (Central Actor)

Professor Mehmet Seyfettin Erolning tahliliga ko‘ra, bugungi global tizimdagi beqarorlik va "tartibsizlik" sharoitida O‘zbekiston Yevroosiyo geosiyosatining shunchaki ishtirokchisi emas, balki uning **markaziy subyektiga** aylanmoqda. Mamlakatning strategik joylashuvi va ichki islohotlarining muvaffaqiyati uni mintaqaviy barqarorlikning kafolatiga aylantirdi. Bu esa O‘zbekistonning mintaqadagi kuchlar muvozanatini belgilovchi asosiy "o‘yinchi" sifatidagi maqomini mustahkamlaydi.

2. "Anqara – Toshkent" strategik o‘qi (The Geopolitical Axis)

Zamonaviy geosiyosatda "Anqara – Toshkent" o‘qi yangi bir strategik kanal sifatida baholanmoqda. Bu hamkorlik nafaqat ikki tomonlama aloqalarni, balki Turkiy dunyoning yaxlit bir blok sifatida shakllanishini ta’minlaydi. Turkiyaning G‘arb bilan aloqalari va O‘zbekistonning Markaziy Osiyodagi yetakchiligi birlashib, mintaqada yirik geosiyosiy qutblar (Rossiya, Xitoy, AQSh) o‘rtasida muvozanat saqlay oladigan "**uchinchi kuch**" markazini hosil qiladi.

3. "O‘rta karidor" geosiyosiy ulanish (connectivity)

O‘zbekistonning "O‘rta koridor" (Trans-Kaspiy xalqaro transport yo‘nalishi) loyihasidagi faolligi mamlakatning "landlocked" (dengizga chiqish yo‘li yo‘qligi) maqomi bilan bog‘liq geografik qaramligini kamaytirishga qaratilgan eng muhim strategik qadamdir. Ushbu yo‘nalish Xitoyni Markaziy Osiyo va Kaspiy dengizi orqali Yevropa bilan bog‘lab, Rossiyani aylanib o‘tuvchi eng xavfsiz va qisqa yo‘l hisoblanadi. Transport-logistika tizimlarining diversifikatsiyasi⁴⁸ O‘zbekistonni global ta’minot zanjirining ajralmas qismiga aylantiradi. Bu esa davlatga tranzit nazorati orqali mintaqaviy siyosatda katta iqtisodiy va siyosiy "richag" (ta’sir vositasi) beradi.

4. Strategik muvozanat va ko‘p vektorli diplomatiya

O‘zbekistonning tashqi siyosati bugungi kunda "muvozanatlashgan ko‘p vektorli yondashuv"ning klassik namunasiga aylandi. Mamlakat hech bir yirik quvvat

⁴⁷ <https://dunyo.info/en/news/hrriyet-gazetasi-anaratoshkent-sherikligi-turkiy-dunyo-kelazhagi-va-1>

⁴⁸ **Diversifikatsiya** – bir tomonlama qaramlikdan qochish uchun iqtisodiy va siyosiy aloqalarni turli yo‘nalishlar bo‘yicha kengaytirish va takomillashtirish jarayoni.



markaziga to'liq bog'lanib qolmasdan, har biri bilan pragmatik⁴⁹ manfaatlar asosida hamkorlik qilmoqda. Rossiya bilan energetika va mintaqaviy xavfsizlik, Xitoy bilan "Bir makon, bir yo'l"⁵⁰ doirasidagi infratuzilma, Yevropa Ittifoqi bilan GSP+ doirasidagi savdo⁵¹ va AQSh bilan texnologik transfer. Ayniqsa, 2025-yilda AQSh bilan yuqori darajadagi muloqotlarning jadallashishi va "C5+1"⁵² formati doirasidagi faollik O'zbekistonning G'arb yo'nalishidagi geosiyosiy "vazni"ni sezilarli darajada oshirdi, bu esa o'z navbatida boshqa global o'yinchilar bilan muloqotda manevr⁵³ maydonini kengaytirdi.

5. Global mediatsiya va tinchlikparvar ambitsiyalari.

O'zbekistonning geosiyosiy ambitsiyalari⁵⁴ endilikda Markaziy Osiyo chegaralaridan chiqib, global miqyosga ko'tarilmoqda. Bunga mamlakatning diplomatik mediatsiya (vositachilik) salohiyatini rivojlantirayotgani yaqqol dalildir.

2026-yilda O'zbekistonning G'azo tinchlik kengashi⁵⁵ kabi o'ta murakkab xalqaro mexanizmlarning asoschi a'zosiga aylanishi mamlakatning "Yumshoq kuch" (Soft Power) strategiyasini yangi bosqichga olib chiqdi. Global mojaralarda adolatli va mas'uliyatli hakam sifatida ishtirok etish, O'zbekistonning xalqaro huquqiy maydondagi nufuzini mustahkamlaydi va uni xalqaro xavfsizlikning yangi arxitektori sifatida namoyon etadi.

O'zbekistonning geosiyosiy cheklovlari va ularni bartaraf etish strategiyalari.

O'zbekistonning geosiyosiy joylashuvi nafaqat imkoniyat, balki qator jiddiy qiyinchiliklarni ham yuzaga keltiradi. Maqolaning ushbu qismida asosiy muammolar va ularning diplomatik hamda geoiqtisodiy yechimlari tahlil qilinadi.

❖ "Double-landlocked" muammosi va transport diversifikatsiyasi

⁴⁹ **Pragmatizm** – har qanday nazariya yoki g'oyani faqat amaliy foyda va natija keltirish nuqtai nazaridan baholaydigan strategik yondashuv.

⁵⁰ <https://eng.yidaiyilu.gov.cn/>

⁵¹ https://economy-finance.ec.europa.eu/economic-forecast-and-surveys/economic-forecasts/autumn-2025-economic-forecast-shows-continued-growth-despite-challenging-environment_en

⁵² <https://www.state.gov/c51>

⁵³ **Geosiyosiy manevr** – murakkab xalqaro vaziyatda davlatning o'z mustaqilligi va manfaatlarini saqlab qolish uchun qo'llaydigan taktik va strategik yurishlari yig'indisi.

⁵⁴ **Geosiyosiy ambitsiyalar** – davlatning o'z milliy manfaatlaridan kelib chiqib, xalqaro munosabatlar tizimida sezilarliroq rol o'ynash va yangi geosiyosiy marralarni egallashga bo'lgan intilishlari yig'indisi.

⁵⁵ <https://www.gazeta.uz/oz/2026/02/19/summit/>

1-rasm. O‘zbekistonning mintaqadagi geosiyosiy joylashuvi.

Xaritada mamlakatning "double-landlocked" (ikki karra quruqlik bilan o‘ralganlik) xususiyati — jahon okeaniga chiqish uchun kamida ikkita davlat chegarasini kesib o‘tish zaruriyati va uning asosiy transport magistralari aks etgan.

Taqdim etilgan xaritada ko‘rinib turganidek, O‘zbekiston Markaziy Osiyoning qoq markazida joylashgan bo‘lib, u dunyodagi sanoqli "double-landlocked" (ikki karra quruqlik bilan o‘ralgan) mamlakatlardan biridir. Bu shuni anglatadiki, O‘zbekiston mahsulotlari jahon okeaniga chiqishi uchun kamida ikkita davlat (masalan, Afg‘oniston va Pokiston yoki Turkmaniston va Eron) hududini kesib o‘tishi shart. Ushbu geografik yopiqlik eksport mahsulotlarining logistika xarajatlarini sezilarli darajada oshiradi va mamlakatni qo‘shni davlatlar transport tizimlariga to‘liq qaram qilib qo‘yadi. O‘zbekiston ushbu geografik qisqichni "transport diplomatiyasi" va yo‘laklarni diversifikatsiya qilish orqali hal etmoqda. Xaritadagi mavjud temir yo‘l tarmoqlarini xalqaro magistralar bilan bog‘lash orqali quyidagi strategik yo‘nalishlar rivojlantirilmoqda:



- **Sharq-G‘arb yo‘nalishi (Connectivity):** "Xitoy-Qirg‘iziston-O‘zbekiston" temir yo‘li qurilishi va "O‘rta koridor" (Trans-Kaspiy yo‘nalishi) loyihalarida faol ishtirok etish. Bu yo‘nalishlar mamlakatga Rossiya hududiga bog‘lanib qolmagan holda, qisqa yo‘l orqali Yevropa bozorlariga chiqish imkonini beradi.

- **Janub yo‘nalishi (Okeanga chiqish):** Xaritaning eng janubiy nuqtasi bo‘lgan Termiz shahri orqali o‘tuvchi "Trans-afg‘on" (Termiz – Mozori Sharif – Kobul – Peshovar) temir yo‘li loyihasi. Ushbu yo‘lak O‘zbekiston uchun eng yaqin dengiz



portlari — Pokistonning Gvadar va Karachi portlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish yo‘lini ochib beradi va Janubiy Osiyo bozori bilan integratsiyani ta‘minlaydi.

❖ **Transchegaraviy suv resurslari va ekologik xavfsizlik strategiyasi**

O‘zbekistonning geosiyosiy joylashuvi uni suv resurslari masalasida "quyi oqim" (downstream) davlatiga aylantiradi. Xaritada ko‘rinib turganidek, mamlakatda foydalaniladigan suvning asosiy qismi qo‘shni Tojikiston va Qirg‘iziston kabi "yuqori oqim" (upstream) davlatlari hududida shakllanadi. Ushbu davlatlarning gidroenergetika sohasidagi manfaatlarining O‘zbekistonning agrar ehtiyojlari bilan to‘qnashishi mintaqaviy barqarorlikka ta‘sir etuvchi asosiy omillardan biri bo‘lib qolmoqda. Bundan tashqari, iqlim o‘zgarishi natijasida mintaqadagi muzliklarning erishi va qor yog‘ishi miqdorining kamayishi suv taqchilligini yanada keskinlashtirmoqda. Bu nafaqat qishloq xo‘jaligiga, balki aholini ichimlik suvi bilan ta‘minlashga ham jiddiy xavf tug‘dirib, O‘zbekistonni jahonning suv taqchilligi eng o‘tkir bo‘lgan "qizil mintaqalari" qatoriga olib kirmoqda. Orol dengizining qurishi va "Orolqum" sahrosining vujudga kelishi esa nafaqat iqtisodiy, balki transchegaraviy ekologik ofat sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mazkur murakkab geosiyosiy va ekologik cheklovlarni bartaraf etish uchun O‘zbekiston quyidagi strategik choralarni amalga oshirmoqda:

○ **Yangi tahrirdagi "Suv diplomatiyasi"**: Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida transchegaraviy ⁵⁶ suv resurslaridan foydalanish bo‘yicha xalqaro standartlarga asoslangan yangi, barqaror va tomonlar uchun teng manfaatli kelishuvlarga erishish. Bu yo‘nalishda qo‘shni davlatlar bilan hamkorlikni jadallashtirish va ziddiyatli masalalarni muloqot orqali hal etish ustuvor vazifadir.

○ **Ichki resurslarni boshqarish tizimini modernizatsiya⁵⁷ qilish**: Suv xo‘jaligi sohasiga innovatsiyalarni keng joriy etish, suvni tejaydigan texnologiyalarni rag‘batlantirish va sohada malakali kadrlar yetishmovchiligi muammosini hal etish.

○ **Ekologik barqarorlikni ta‘minlash**: Orolbo‘yi mintaqasining ekologik holatini yaxshilash va transchegaraviy daryolar oqimini koordinatsiyalashgan holda boshqarish mexanizmlarini yaratish.

O‘zbekiston uchun suv xavfsizligi masalasi shunchaki ekologik muammo emas, balki milliy xavfsizlik va barqaror iqtisodiy rivojlanishning hal qiluvchi omilidir. Mamlakatning "quyi oqimda" joylashgani tashqi suv resurslariga qaramlikni keltirib chiqarsa-da, faol suv diplomatiyasi va ichki resurslarni modernizatsiya qilish orqali ushbu xavfni boshqarish mumkin. Kelajakda mintaqaviy hamkorlikni institutsional darajaga ko‘tarish va suvni tejoyvchi texnologiyalarga to‘liq o‘tish O‘zbekistonning

⁵⁶ **Transchegaraviy** – ikki yoki undan ortiq davlatlar hududidan o‘tuvchi yoki ularning chegaralari orqali tutashgan (masalan, daryolar, yo‘llar, ekologik zonalar).

⁵⁷ **Modernizatsiya** (lot. *modernus* – zamonaviy) – obyekt yoki tizimni yangi talablar, me‘yorlar va texnik ko‘rsatkichlarga muvofiq ravishda takomillashtirish, yangilash jarayoni.

"qizil mintaqadan" chiqib, suv resurslari bo'yicha barqaror davlatlar qatoriga kirishini ta'minlaydigan yagona strategik yo'ldir.

Xulosa: O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning geosiyosiy joylashuvi mamlakatning tashqi siyosiy va geoiqtisodiy strategiyasini belgilovchi fundamental omildir. Mamlakatning Markaziy Osiyo markazida joylashgani va "double-landlocked" maqomi bir vaqtning o'zida ham strategik ustunliklarni, ham ob'ektiv geosiyosiy cheklovlarni taqdim etadi. Yangi O'zbekistonning tashqi siyosiy strategiyasi ushbu cheklovlarni passiv qabul qilishdan voz kechib, ularni faol "manevr maydoni"ga aylantirishga qaratilgan. Xususan:

1. **Tranzit va logistika sohasida:** "O'rta koridor" va "Trans-afg'on" kabi loyihalar geografik yopiqlik muammosini hal etish bilan birga, mamlakatni Yevroosiyo qit'asining muhim transport xabiga aylantirmoqda.

2. **Ekologik va suv xavfsizligi borasida:** "Suv diplomatiyasi" va ichki modernizatsiya jarayonlari mintaqaviy ziddiyatlarni kamaytirish va milliy barqarorlikni ta'minlashning yagona samarali yo'li sifatida namoyon bo'lmoqda.

3. **Diplomatik maydonda:** "Anqara – Toshkent" o'qi va ko'p vektorli pragmatizm O'zbekistonga yirik quvvat markazlari o'rtasida muvozanatni saqlash hamda global mediatsiya jarayonlarida "yumshoq kuch" sifatida ishtirok etish imkonini bermoqda.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston endilikda geosiyosiy jarayonlarning shunchaki kuzatuvchisi emas, balki mintaqaviy xavfsizlik va barqaror rivojlanishning faol arxitektori ga aylanmoqda. Kelajakda transport yo'laklarini diversifikatsiya qilishni davom ettirish va suv resurslarini boshqarishda innovatsion yondashuvlarni qo'llash mamlakatning global raqobatbardoshligini va geosiyosiy vazni ni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan manbalar:

1. <https://dunyo.info/en/news/hrriyet-gazetasi-anaratoshkent-sherikligi-turkiy-dunyo-kelazhagi-va-1>
2. <https://eng.yidaiyilu.gov.cn/>
3. https://economy-finance.ec.europa.eu/economic-forecast-and-surveys/economic-forecasts/autumn-2025-economic-forecast-shows-continued-growth-despite-challenging-environment_en
4. <https://www.state.gov/c51>
5. <https://www.gazeta.uz/oz/2026/02/19/summit/>
6. <https://kun.uz/en/news/2022/08/10/water-scarcity-in-uzbekistan-probable-drought-and-escalating-environmental-challenges>
7. <https://www.uzembassy.uk/news/664>